# DOYRA CHOLG'USIDA IJROCHILIK MAHORATINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN MASHQLAR MOHIYATI

**Ismoil Rustamov**
Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Vokal va Cholg'u ijrochiligi kafedrasi o'qituvchisi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7164885***

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola Doyra usullarini ijro etish uslublari nomli yaratilgan o'quv qo'llanmani ommalashtirishga xizmat qiladi. Maqolada o'quv qo'llanma mazmun mohiyati, O'zbekiston doyra maktabi asoschilari ijodi, qollanmadan joy olgan doyra mashqlari maqsad va vazifalari yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *doyra, ijodkor, mashq, ijod, ijro mahorati, san'at, O'zbekiston doyra maktabi.*

# СУТЬ УПРАЖНЕНИЙ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ИСПОЛНИТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ НА ИНСТРУМЕНТЕ ДОЙРА

**Аннотация.** *Данная статья служит популяризации созданного учебного пособия под названием «Исполнительские Методы при игре Доира». В статье рассказывается о содержании учебного пособия, работе основателей школы Дойры Узбекистана, целях и задачах упражнений, вошедших в пособие.*

**Ключевые слова:** *дойра, творец, упражнение, творчество, исполнительское мастерство, искусство, школа дойры Узбекистана.*

# THE ESSENCE OF EXERCISES USED IN IMPROVING PERFORMING SKILLS ON THE INSTRUMENT DOIRA

**Abstract.** *This article serves to popularize the created training manual called "Performing Methods when playing Doir". The article describes the content of the textbook, the work of the founders of the Doira School of Uzbekistan, the goals and objectives of the exercises included in the manual.*

**Keywords:** *doyra, creator, exercise, creativity, performance skills, art, doyra school of Uzbekistan.*

## KIRISH

Jamiyatimizning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Har bir millat o'z kelajak avlodida komillikni ko'rishni orzu qiladi. O'zbek xalqi ham o'z madaniyati va ma'naviyatida komil insonlar tarbiyasiga alohida e'tibor bergan va bunday komillik darg'alarini yetishtirish har bir zamonda muhim sanalgan. Inson kamolotida esa jismoniy va ma'naviy go'zalik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bugungi kunda yurtimizda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatimizning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan, intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalashga aloxida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbek musiqa san'atining tarixiy bosqichlariga yuzlanar ekanmiz doyra cholg'u asbobi ohang jozibadorligini asl holicha saqlab qolingan yagona cholg'u asbobi hisoblanadi. O'zbekistonda doyra ijrochiligi maktabi asoschilari va ularning davomchilari bo'lmish namoyondalari tomonidan ijro san'atining deyarli barcha janrlariga murojat qilganlar va bugungi kunga qadaar o'z ijro mahoratlarini yuksak namunalar orqali katta sahnalarda namoyish

qilib kelmoqdalar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Musiqa san’ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir.”

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3022-sonli, 2017 yil 8-avgustdagi “O’zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3178-sonli, 2018-yil 26-avgustdagi “O’zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3920-sonli, 2018-yil 28-noyabrdagi “O’zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4038-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu mazkur tadqiqot natijalaridan muayyan darajada foydalanish mumkin.

**TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Yangi O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar, xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, mamlakatimizda ilm-fan, san’at va madaniyat sohalarida erishilayotgan yutuqlar, aholini, ayniqsa, yoshlarda yot g’oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda, milliy qadriyatlar va an’analarni asrab avaylash va keng tag’rib etishda musiqa ta’limi va san’atining o’rni beqiyosdir.

“Zarbli cholg'ularda chalish barcha xalqlarda ham eng zavqli va zaruriy mashg'ulot bo'lib, bu haqda musulmon olamining buyuk faylasuf olimi Abu Homid G'azzoliy o'zining “Kimiyoi saodat” kitobining “Simoning (ba’zi) haromlig'i bayonida” faslida shunday deydi; — “Surud va rubob va chang va barbat va nay aroq birla bo'lsa haromdur. Chunki bu nimarsalar sharobxo'rlar odatidur. Har nimarsaki, ularga xosdur—haromdur. Chunki bular sharobni yodig'a keltirur va aning orzusini ziyoda qilur. Ammo tabla va daf chalmoq xarom emas. Agarchi salosil, ya’ni zanjirlari va qayrog'i bo'lsa ham. Chunki daf va tabla hyech asrda rad bo'lmabdurki, o'zga nag'malarga muni qiyos qilib bo'lmas. Hazrati Rasul s.a.v, huzurlarida daf chalibdurlar va to‘y ma’rakada daf-doira chalmoqg‘a farmon qilibdurlar. Tabla chalmoq g'oziylar va hojilaming rasmidur”[1]. Bundan ko'rinib turibdiki, musulmon olamida boshqa cholg'ularga qaraganda, zarbli cholg'ulardan daf-doira va tabla chalish qo'llab-quwatlangan. Ayniqsa buni “Temur tuzuklari”dagi dalillardan ham bilishimiz mumkin[2].

O‘zbek harbiy zadogonlarining yuksak ma’rifatli vakili bo'lgan Amir Temur, musiqa san’atining muhim estetik ahamiyatini ma’naviy omil sifatida harbiy musiqa turlarini qo'shinlarning jangovarlik ruhiyatini oliy darajada saqlab turuvchi kuch deb bilgan va uning rivojiga katta e’tibor bergan. U tarixda birinchi bo'lib, askarlarni jangovar bayroqlar va musiqa cholg'u asboblari bilan taqdirlash odatini harbiy udumga kiritadi: “Amr qildimki, - deb yozadi “Tuzuklar”ida, — qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar - faxrii xitob, tug' va nog'ora berib, uni bahodir deb atasinlar”[2,355].

**TADQIQOT NATIJALARI**

Mazkur qo’llanmada doyra ijrochiligi bilan bog’liq tadqiqotlarni alohida qayd etish lozim. Usta Olim Komilov ijrosidagi xalq doira usullarining ko‘pi Ilyos Akbarov ("Doyra usullari", T., 1952), V. Uspenskiy, Ye. Romanovskayalar tomonidan yozib olingan. Usta Olim

Komilovning ijro uslubi zarblar jilvadorligi qamda tembr vositalarining xilmaxilligi bilan ajralib turadi. T. Inogʻomov, K. Azimov, A. Toʻychiyev va boshqa doirachilarga ustozlik qilgan.

**MUHOKAMA**

O'zbek doyra maktabi borasida so'z borar ekan, barchaning ko'z o'ngida Usta Olim Komilov siymosi gavdalanishi tabiiy. O'zbek doyrasi sadolarining chet el sahnalarida sadolanishi va o'zining mohirona ijrosi bilan jahon tomoshabinlari yuraklarini zabt etgan ustoz san'atkor Usta Olim Komilovning doyra cholg'usi ijrosi sir asrorlarini nafaqat amaliy, balki nazariy-ilmiy jihatdan o'quv qo'llanma va darsliklar ko'rinishida xalqimizga yetkazgan ustoz san'atkor Dilmurod Islomov xisoblanadi. Zamonamiz doyra maktabiga yangicha nafas baxsh etgan ustoz san'atkor Dilmurod Islomov o'z atrofida keyinchalik kasbiga sadoqatli shogirdlar tarbiyalab xalqimiz xizmatiga safarbar etdi.

O'quv qo'llanma uch bo'limdan iborat bo'lib, I bo'lim, boshlang'ich mashqlar ijrochi postanovkasini to'g'ri yo'lga qo'yishni, II bo'lim, o'rta murakkablikdagi mashqlardan iborat bo'lib, ijrochini murakkab asarlarni ijro etishga tayyorlashga mo'ljallangan. III bo'lim doyra cholg'usiga mo'ljallangan alohida ijro mahoratini talab etadigan durdona asarlar o'rin olgan.

**XULOSA**

Ustozlarimizdan olgan amaliy saboqlarimizni uslubiy qo'llanmamiz asosini tashkil etuvchi bir qator ijodiy izlanishlarimiz natijasida yosh doyrachi mahoratini oshirishga mo'ljallangan mashqlar misolida ifoda etamiz. Mashqlarimizning har biriga uslubiy-nazariy tahlil keltirganmiz.

**REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B.344
2. G'azzoliy. Kimyoi saodat. T., "Adabiyot" 2005y, 355-356-b.
3. https://youtu.be/DFTUYuYhKZs O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi, professor Dilmurod Islomov hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Umr daftari" ko'rsatuvi.
4. A.Odilov. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi.- Toshkent. O'qituvchi – 1995 y.
5. Il.Akbarov yozib olgan. Doyra usullari. – Toshkent 1952 y.
6. Doira Raqs darsi, Usta Olim Komilov va Tamaraxonim. 1928 yil.
7. Madina Nasretdinova, Ismoil Rustamov, & Oybek Karimov (2022). MUSIQA SAN'ATINING HOZIRGI KUNDAGI O'RNI. Scientific progress, 3 (2), 841-845.
8. Ismoil Rustamov. (2022). The Place of Doira Instrument in Uzbek National Art. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, *5*, 74-77. Retrieved from https://www.geniusjournals.org/index.php/ejhss/article/view/583
9. Ahmadjon Nurmuhamedjanov, & Ismoiljon Rustamov (2022). YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARIDAGI TO'GARAKLARNING O'RNI. Science and innovation, 1 (C2), 48-50. doi: 10.5281/zenodo.657842
10. Mannopov, S., Karimov, A., Qurbonova, B., & Dilobar, J. (2022, February). THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF MUSIC. In *Archive of Conferences* (pp. 49-52).
11. Мадина Насритдинова (2022). МУСИҚА ТАЪЛИМИ ОРҚАЛИ РИВОЖЛАНИШИДА СОҒЛОМ БОЛАЛАРДАН ОРТДА ҚОЛГАН БОЛАЛАРНИ

СОҒЛОМЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШГА ДОИР ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИ НАТИЖАЛАРИ. Science and innovation, 1 (1), 538-549.

12. Jo'Rayev Xamidjon, & Madina Nasritdinova (2022). DOIRA CHOLG'USIDA IJRO MAHORATINI YUKSALTIRISH (BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI MISOLIDA). Science and innovation, 1 (C2), 26-28. doi: 10.5281/zenodo.663646
13. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.
14. Nasretdinova, M., Isakov, U. B., & Orziboyev, R. (2022). XALQ IJODIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Scientific progress*, *3*(2), 851-856.
15. Nasritdinova, M. (2021). PEDAGOGICAL COMPONENTS AND STAGES OF HEALTH OF DEVELOP CHILDREN THROUGH MUSIC EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(05), 251-258.
16. Nasritdinova, M., Nigora, M., & Murodova, D. (2022, February). UZBEK FOLK ART AND ITS PLACE IN PUBLIC LIFE. In *Archive of Conferences* (pp. 44-48).
17. Nurmuhammadovich, R. O., & Nurullaevna, N. M. (2021). Social And Spiritual Importance of Lessons of Musical Culture. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *2*(2), 50-52.
18. Nasritdinova, M., & Khokimova, K. (2021, October). LANGUAGE IS THE MIRROR OF THE NATION. In *Archive of Conferences* (pp. 92-94).
19. Nurullayevna, N. M., & Muhlisa, T. (2021, December). SOME PROBLEMS AND SHORTCOMINGS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. In *Archive of Conferences* (pp. 61-62).
20. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, *1* (1), 196-199.
21. Durdona, M. (2021, May). ABOUT DUTOR AND HIS PERFORMANCE. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 29-31).
22. Madina Nasritdinova, Mansurova Nigora, & Durdona Murodova. (2022). UZBEK FOLK ART AND ITS PLACE IN PUBLIC LIFE. *Archive of Conferences*, 44-48. Retrieved from https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1888
23. Nasretdinova, M., Toshaliyev, D., & Murodova, D. R. Q. (2022). AN'ANAVIY IJROCHILIK SAN'ATINING HOZIRGI DAVR MUAMMOLARI. *Scientific progress*, *3*(2), 846-850.
24. Murodova, D. (2021). THE CONCEPT OF MUSICAL THINKING AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(05), 245-250.
25. MURODOVA, D. (2021, April). TRADITION AND INNOVATION IN THE CREATION OF THE MOTHER IN PAK WANSO. In *Oriental Conferences* (pp. 251-260).
26. Abdulhay Karimov Tursinovich, & Alijon Ergashev Abdullayevich. (2022). MILLIY-AN'ANAVIY MUSIQIY CHOLG'U SOZLARINING TASNIFI. *Archive of Conferences*, 245-248. Retrieved from https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/2096
27. SultonaliMannopov, AbdulhayKarimov, AbdusalomSoliev, UlugbekIsakov, TokhirShokirov, RustamOrziboev. (2021). Development of Uzbek National Singing Art

during Independence. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6845 –. Retrieved from https://www.annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/view/3280

28. Mannopov, S., Karimov, A., Qurbonova, B., & Dilobar, J. (2022, February). THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF MUSIC. In *Archive of Conferences* (pp. 49-52).
29. Professor Sultanali Mannopov, Abdulkhay Karimov, Shohida Ataboeva, Alijon Ergashev, & Shokhista Usmanova. (2021). Development Of Symphonic Music in Uzbekistan. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *2*(2), 53–56. Retrieved from https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/259
30. Маннопов, С., & Сулейманова, Д. К. (2019). Музыкальное наследие узбекского народа. *Проблемы современной науки и образования*, (10 (143)), 82-84.
31. Mannopov, S. (2004). Uzbek folk music culture.(Study guide) Tashkent. *New Age Generation*.
32. Маннопов, С. (2018). Навобахш оҳанглар. *Т.: IJOD-PRESS нашриѐти*.С.
33. Маннопов, С. У. Л. Т. О. Н. А. Л. И. (2004). Ўзбек халқ мусиқа маданияти. *Янги аср авлоди*. Маннопов (2019). Шарқ маданияти ривожида ўзбек халқ мусиқа меросининг тутган ўрни. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 29-36.